

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIGI**

2023 - yil 14 - avgust

172-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining 2023-yil 29-iyuldagi 20/1350-sonli xati va Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 9-avgustdagi SM/12-02/3230-sonli xulosasini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodiqov) "4-avgust – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilgan kun" munosabati bilan Milliy gvardiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasi harbiy xizmatchilarini rag'batlantirish hamda Qo'ng'iro't tumanida yangidan tashkil etilgan bo'linmani kerakli jihozlar bilan taminlash maqsadida sarflangan xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan 160 350 000 (*bir yuz oltmish million uch yuz ellik ming*) so'm mablag'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasi bilan birgalikda ajratilgan mablag'ning qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati Bosh boshqarmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat moliyaviy nazorati boshqarmasidan (B.Utambetov) yuqorida ko'rsatilgan ishlarga ajratilgan mablag'larning qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyishning qonunchilikka muvofiq ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari N.Erlepesov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov